



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-may holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan
o'tgan

31145
ta

2019-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 2396 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 744 taga ko'pdir.

Faoliyat
ko'rsatayotgan

29836
ta

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3934 ta (15,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 29836 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil
etilganlar

2396
ta

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)

31145 tani
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar
soni, birlikda




13,5 %

O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
o'sish sur'ati

2019-yilning 1-may holatiga 31145 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,5 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,6 % savdo, 20,5 % sanoat, 8,7 % qurilish, 6,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,9 % axborot va aloqa hamda 24,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (8290 ta) savdo, (6378 ta) sanoat, (2696 ta) qurilish, (2021 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1481 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1210 ta) tashish va saqlash, (697 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (578 ta) axborot va aloqa hamda (7794 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 29836 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3934 ta (15,2 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat



Qurilish




Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi




Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (9884 ta), Asaka (2770 ta), Shahrihon (1986 ta) va Andijon (1980 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Honobod shahri (481 ta), Ulug'nor (594 ta), Bo'z (735 ta) hamda Buloqboshi (773 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida 2396 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 744 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1005 ta), sanoat (610 ta), qurilish (246 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (111 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (37 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (42 ta), tashish va saqlash (79 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



1005

Tashish va saqlash



79

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



111

Qurilish



246

Sanoat



610

Axborot va aloqa



37

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



42

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



81


Boshqa turlari



185

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahri (730 ta), Asaka (212 ta), Shaxrixon (198 ta) va Andijon (149 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ulug'nor (33 ta), Xonobod shahri (40 ta) hamda Bo'z (48 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yanvar-aprel
oylarida yangi tashkil
etilgan korxonalar va
tashkilotlar yillar
kesimida



Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 25089 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona



Unitar korxona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



249
ta


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,6 % o'sgan.


Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 249 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 68 taga yoki 37,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 135 tasi qo'shma, 114 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Xorijiy korxonalar




Jami



Qo'shma korxonalar





Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 96 ta (jamidagi ulushi 38,6 %), Andijon 21 ta (8,4 %), Shahrihon 18 ta (7,2 %) va Asaka tumanida 16 tani (6,4 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'z 4 ta (1,6 %), Ulug'nor 4 ta (1,6 %), Jalaquduq 5 ta (2,1 %), Paxtaobod 5 ta (2,1 %) va Xo'jaobod tumanida 6 tani (2,4 %) tashkil etgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlashda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 27 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 6 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 5 ta, Koreya Respublikasi - 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Afg'oniston Respublikasi - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Italiya Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston, Tojikiston, Pokiston Islom Respublikasi va Birlashgan Arab Amirligi - 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 13 ta sanoat, 4 ta qurilish, 4 ta savdo, 3 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2 tasi axborot va aloqa hamda 1 ta boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)



2019-yil 1-may holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 24964 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 17,6 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-aprel oylarida 2317 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1038 taga ko'proqdir.




•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta ulushi

•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng kichik ulushi



•Andijon shahri
35,2 %



•Qo'g'ontepa tumani
4,5 %



•Asaka tumani
9,5 %



•Jalolquduq tumani
3,6 %



•Andijon tumani
6,8 %




•Xo'jaobod tumani
3,4 %




•Shahrihon tumani
6,5 %



•Pahtaobod tumani
3,2 %



•Oltinko'l tumani
5,3 %



•Buloqbooshi tumani
2,4 %




•Baliqchi tumani
5,0 %




•Bo'z tumani
2,3 %




•Marhamat tumani
4,5 %



•Ulug'nor tumani
1,8 %




•Izboskan tumani
4,5 %



•Honaobod shahri
1,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 24964 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 7823 ta (31,3 %) – savdo, 6032 ta (24,2 %) - sanoat, 2582 ta (10,3 %) - qurilish, 1867 ta (7,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1403 ta (5,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1159 ta (4,6 %) - tashish va saqlash, 597 ta (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 542 ta (2,2 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2959 tasi (11,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

43,4 %



Sanoat

26,3 %



Qurilish

10,6 %



Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar

4,8 %



Tashish va
saqlash

3,4 %



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi

3,5 %



Axborot va aloqa

1,6 %



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish

1,8 %




Boshqa turlar

4,6 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1005 ta, sanoat 609 ta, qurilish 246 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi 111 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 37 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 41 ta, tashish va saqlashda 79 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 81 ta tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (701 ta), Asaka (203 ta), Shahrihon (198 ta) va Andijon (146 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Ulug'nor (32 ta), Honobod shahri (40 ta) hamda Bo'z (45 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-may holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan
● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan
● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-may holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qargalganda ularning 44,3 % yoki 282 tasi sanoat, 20,1 % yoki 128 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 12,2 % yoki 78 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,4 % yoki 66 tasi savdo, 1,7 % yoki 11 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,3 % yoki 8 tasi qurilish, 1,1 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 5 tasi axborot va aloqa hamda 8,1 % yoki 52 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik registrlarni
yuritish bo'limi**

Tel.:74-228-29-74